

**MEHNAT MUNOSABATLARI SOHASIDAGI QONUN BUZILISHLARINI
BARTARAF ETISH YUZASIDAN PROKURATURA ORGANLARINING
TA'SIR CHORALARI**

Mirzayev G'iyosbek Isroil o'g'li

“Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish” sho‘basi katta o‘qituvchisi
Toshkent davlat yuridik universiteti
E-mail: giyosbek.mirzayev91@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur tezisda O‘zbekiston Respublikasida mehnat munosabatlari sohasida qonuniylikni ta’minlashda prokuratura organlarining o‘rni va vakolatlari ilmiy-huquqiy jihatdan tahlil qilingan. Mehnat qonunchiligi buzilishlarining asosiy ko‘rinishlari, prokuror nazoratining amaldagi mexanizmlari, sud amaliyotida uchrayotgan mehnat nizolari hamda ularni bartaraf etishning huquqiy mexanizmlari yoritiladi. Shuningdek, amaliyotda mavjud muammolar va ularni hal etish maqsadida prokuratura organlarining ta’sir choralari takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: prokuror nazorati, mehnat huquqi, mehnat nizolari, ishga tiklash, taqdimnoma, protest, preventiv nazorat, mehnat huquqlarini himoya qilish.

**PROSECUTORIAL RESPONSE MEASURES FOR ELIMINATING
VIOLATIONS OF LABOR LEGISLATION
IN LABOR RELATIONS**

Mirzaev Giyosbek Isroil son

Senior Lecturer at the Section of Criminal Law,

Criminology, and Anti-Corruption,
Tashkent State University of Law.

E-mail: giyosbek.mirzayev91@mail.ru

Abstract. *This thesis provides a scientific and legal analysis of the role and powers of the prosecutor's office in ensuring the rule of law within the sphere of labor relations in the Republic of Uzbekistan. It highlights the main forms of labor law violations, the existing mechanisms of prosecutorial supervision, labor disputes encountered in judicial practice, and the legal mechanisms for their resolution. Furthermore, it develops proposals for improving the prosecutorial measures aimed at resolving existing practical problems.*

Keywords: *prosecutorial supervision, labor law, labor disputes, reinstatement, submission, protest, preventive supervision, protection of labor rights.*

**МЕРЫ ПРОКУРОРСКОГО РЕАГИРОВАНИЯ ПО УСТРАНЕНИЮ
НАРУШЕНИЙ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА В СФЕРЕ ТРУДОВЫХ
ОТНОШЕНИЙ**

Мирзаев Гиёсбек Исроилович

Старший преподаватель сектор "Уголовное право,
криминология и противодействие коррупции"

Ташкентский государственный юридический университет

Аннотация. *В настоящих тезисах проведён научно-правовой анализ роли и полномочий органов прокуратуры в обеспечении законности в сфере*

трудовых отношений в Республике Узбекистан. Освещены основные виды нарушений трудового законодательства, действующие механизмы прокурорского надзора, трудовые споры, возникающие в судебной практике, а также правовые механизмы их разрешения. Кроме того, разработаны предложения по совершенствованию мер прокурорского реагирования, направленных на устранение существующих проблем правоприменительной практики.

***Ключевые слова:** прокурорский надзор, трудовое право, трудовые споры, восстановление на работе, представление прокурора, протест прокурора, превентивный надзор, защита трудовых прав.*

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 42-moddasida har kimning munosib mehnat qilish, erkin kasb tanlash hamda adolatli mehnat sharoitlarida ishlash huquqi kafolatlangan. Biroq mehnat munosabatlari sohasidagi huquqni qo'llash amaliyoti mazkur konstitutsiyaviy kafolatlarning ayrim hollarda buzilayotganligini ko'rsatmoqda. Xususan, noqonuniy ishdan bo'shatish, mehnat shartnomalarini rasmiylashtirmaslik, ish haqini o'z vaqtida to'lamaslik va mehnat munosabatlari sohasida qonunchilik talablarining buzilishi holatlari saqlanib qolayotganligini ko'rsatmoqda.

Fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo sudlar tomonidan ko'rib chiqilayotgan mehnat nizolarining sezilarli qismi ishga tiklash va ish haqini undirish bilan bog'liq ekanligi ham ushbu xulosani tasdiqlaydi. Bu holat ayrim ish beruvchilar tomonidan mehnat qonunchiligiga rioya etish darajasi hanuz pastligicha qolayotganini ko'rsatadi. Ayniqsa, xodimlarni ishdan bo'shatishda qonunda

belgilangan protsessual talablarning buzilishi sudlar tomonidan da'volarni qanoatlantirishning asosiy sabablaridan biri bo'lib qolmoqda.

Oliy sud ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda **2025-yil** davomida fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar tomonidan mehnat nizolariga oid **14 mingdan ortiq** (*aniqrog'i 14 000 dan ziyod*) da'vo arizasi ko'rib chiqildi. Bu ko'rsatkich avvalgi yilga nisbatan **8,5 foizga** ko'payganini tashkil etadi.

Mazkur holatlarda prokuratura organlari tomonidan amalga oshiriladigan nazorat faoliyati mehnat huquqlarini tiklashning muhim huquqiy kafolati sifatida namoyon bo'ladi.

Yangi tahrirdagi Mehnat kodeksining 534-moddasiga ko'ra, mehnat to'g'risidagi qonunchilikning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazorat prokuratura organlari tomonidan o'z vakolatlari doirasida amalga oshiriladi. Bu esa prokuratura organlarini mehnat huquqlarini himoya qilishning muhim institutsional subyektlaridan biri sifatida namoyon etadi.

Mazkur munosabatlarda prokuratura organlari tomonidan amalga oshiriladigan nazorat faoliyati muhim ahamiyatga ega. "Prokuratura to'g'risida"gi Qonunga muvofiq prokuratura organlari qonunlarning aniq va bir xilda ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi hamda aniqlangan qonunbuzarliklarni bartaraf etish yuzasidan ta'sir choralarini qo'llaydi.

Mehnat munosabatlari sohasida prokuror quyidagi nazorat vakolatlariga ega:

- qonun buzilishlarini aniqlash;
- qonun buzilishlariga sabab bo'lgan omillarni bartaraf etish;
- fuqarolarning buzilgan huquqlarini tiklash;

- aybdor mansabdor shaxslarni javobgarlikka tortish choralari ko‘rish;
- fuqarolarning manfaatlarini ko‘zlab sudlarga murojaat qilish.

Mehnat munosabatlari sohasida prokuror nazoratini amalga oshirish jarayonida prokurorlarning prokuratura organlari vakolatlari doirasida qabul qiladigan nazorat hujjatlari “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonunning 37-moddasida aniq belgilab qo‘yilgan. Har bir prokuror nazorati hujjati o‘zida quyidagi uchta xususiyatni aks ettirishi lozim: **aniq maqsadga yo‘naltirilganligi; natijadorligi, qonuniylik va asoslilik.** Biroq amaliyot tahlili ushbu nazorat hujjatlari asosan sodir etilgan qonunbuzarlik oqibatlarini bartaraf etishga qaratilganligini, profilaktik mexanizmlar esa yetarli darajada rivojlanmaganligini ko‘rsatadi.

“Prokuror nazorati hujjatining asosiy belgilaridan biri bu uni kiritishdan maqsad – prokuror tomonidan aniqlangan qonun buzilishini bartaraf etishdir”¹.

Mehnat munosabatlari sohasidagi qonun buzilish holatlariga nisbatan prokuratura organlarining ta’sir choralari.

Amaldagi qonunchilikka muvofiq prokuror quyidagi ta’sir choralari qo‘llaydi:

Protest. Qonunga zid bo‘lgan hujjatga nisbatan protestni prokuror ana shu hujjatni qabul qilgan organga yoki yuqori turuvchi organga keltiradi. Mansabdor shaxsning noqonuniy qaroriga nisbatan ham xuddi shunday tartibda protest keltiriladi. *Protest kelib tushgan vaqtdan boshlab o‘n kunlik muddatdan kechiktirmay ko‘rib chiqilishi shart.* Qonunbuzarlikni darhol bartaraf etish talab qilingan alohida hollarda prokuror protestni ko‘rib chiqishning qisqartirilgan

¹ O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi. O‘zbekiston Respublikasining prokuraturasi to‘g‘risidagi qonunga sharh. Toshkent. “Yuridik adabiyotlar publish” 2024. 234-bet.

muddatini belgilashga haqli. Protestni ko'rib chiqish natijalari to'g'risida uch kunlik muddat ichida prokurorga yozma ravishda ma'lum qilinadi².

Misol uchun, rahbar o'z xodimini noqonuniy ravishda ishdan bo'shatish to'g'risida yoki boshqa ishga o'tkazish to'g'risida buyruq chiqardi. Agar ushbu buyruq mehnat qonunchiligiga zid tartibda bo'lsa, ushbu hujjat ustidan protest keltirilishi mumkin.

Taqdimnoma prokuror amaliyotida eng ko'p qo'llanadigan hujjat hisoblanadi. Unda:

- aniqlangan qonun buzilishi;
- uning kelib chiqish sabablari;
- aybdor mansabdor shaxslar;
- qonun buzilishini bartaraf etish choralari ko'rsatiladi.

Taqdimnomani qonun buzilishini bartaraf etish vakolatlariga ega bo'lgan organga yoki mansabdor shaxsga kiritadi.

Taqdimnoma darhol ko'rib chiqilishi va ko'rilgan chora-tadbirlar to'g'risida bir oylik muddat ichida prokurorga yozma ravishda ma'lum qilinishi lozim. Prokuror bu muddatni **3 kunlik** qilib belgilashi ham mumkin.

Ogohlantirish. Qonun buzilishi sodir etilishining oldini olish maqsadida mansabdor shaxslarga yozma ogohlantirish beriladi.

Prokuror fuqarolarning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga, huquq va erkinliklariga, jamiyat hamda davlat manfaatlariga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan g'ayriqonuniy xatti-harakatlar tayyorlanayotganligi xususida ishonchli

² "Prokuraturasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 29.08.2001 yildagi 257-II-son. 38-modda. <https://lex.uz/docs/-106197#-106617>



ma'lumotlar mavjud bo'lganda huquqbuzarlikning oldini olish maqsadida mansabdor shaxslar va fuqarolarni qonunning buzilishiga yo'l qo'ymaslik haqida yozma ravishda ogohlantiradi hamda huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlikni tushuntiradi.

Ariza orqali sudga murojaat qilish. Ayrim hollarda xodimlarning huquqlarini tiklashning yoki ish beruvchi manfaatlarini tiklash yoxud yetkazilgan moddiy zarar o'rnini qoplashning yagona yo'li sud orqali himoya qilish hisoblanadi. Bunday vaziyatlarda prokuror da'vogar sifatida yoki ishda ishtirok etuvchi shaxs sifatida qatnashishi mumkin. Prokuror tomonidan kiritilgan har qanday arizasidan davlat boji olinmaydi.

Qaror. Prokuror mansabdor shaxs yoki fuqaro tomonidan sodir etilgan qonun buzilishining xususiyatiga qarab jinoyat³ ishi, ma'muriy⁴ yoki intizomiy javobgarlik to'g'risida ish qo'zg'atish haqida qaror chiqaradi. Prokuror qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ham qaror chiqaradi. Ma'muriy yoki intizomiy javobgarlik to'g'risidagi ishni qo'zg'atish haqidagi prokurorning qarori kelib tushgan kundan boshlab o'n besh kun ichida organ yoki mansabdor shaxs tomonidan ko'rib chiqilishi shart. Uni ko'rib chiqish natijalari haqida uch kunlik muddatda prokurorga yozma ravishda ma'lum qilinadi.

Mehnat munosabatlari bozor iqtisodiyoti sharoitida ish beruvchi va xodim manfaatlarini to'qnashadigan eng murakkab huquqiy munosabatlardan biri

³ O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. 148-, 148¹ -, 148² - moddalar. 22.09.1994. <https://lex.uz/docs/-111453>

⁴ O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. 49-, 49¹-, 49² -, 49³ - moddalar. 22.09.1994. <https://lex.uz/docs/-97664>

hisoblanadi. Ushbu munosabatlarda iqtisodiy manfaatning ustuvorligi ayrim hollarda mehnat huquqlarining buzilishiga olib kelmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mehnat huquqlari buzilishining asosiy shakllari quyidagicha namoyon bo'lmoqda:

1) ayrim tashkilotlarda mehnat shartnomalari rasmiylashtirilmasdan ishlash holatlari saqlanib qolmoqda.

2) ish beruvchilar tomonidan mehnat qonunchiligi normalarini yetarli darajada bilmaslik natijasida xodimlarni noqonuniy ishdan bo'shatish to'g'risidagi buyruqlar chiqarilmoqda.

3) ayrim xodimlar o'z huquqlarini bilmasligi sababli sud va prokuratura organlariga o'z vaqtida murojaat qilmaydi.

4) mehnat va dam olish vaqti normalariga rioya qilmaslik.

5) mehnat muhofazasi qoidalariga rioya etilmasligi ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarga sabab bo'lmoqda.

Mazkur huquqbuzarliklar nafaqat xodimlarning individual huquqlariga, balki davlatning ijtimoiy siyosati va mehnat bozorining barqarorligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli prokuror nazorati mehnat qonunchiligi ijrosini ta'minlashning muhim kafolati sifatida o'zining ta'sirchan nazorat kuchini yanda ishga solishga davat etmoqda.

Biroq, bugungi amaliyot va ilmiy manbalar tahlili prokuratura organlari faoliyatida mehnat qonunchiligi ijrosi ustidan prokuror nazoratida bir qator tizimli muammolar mavjudligini ko'rsatadi.

Birinchidan, prokuror nazorati asosan sodir etilgan huquqbuzarliklarni aniqlash va bartaraf etishga qaratilgan bo'lib, uning preventiv salohiyati yetarlicha ishga solinmayapti.

Ikkinchidan, mehnat huquqlari buzilishi bo'yicha prokuratura, sudlar va bandlik organlari o'rtasida yagona elektron monitoring tizimi mavjud emas.

Uchinchidan, prokuror taqdimnomalari va boshqa nazorat hujjatlari ijrosining samaradorligini baholashning yagona mezonlari shakllantirilmagan.

To'rtinchidan, prokuraturaning nazorat obyekti kengli, ish hajmining ko'pligi bu sohada ham alohida tizimli nazoratni olib borishga kadrlar taqchilligi ya'ni shtatlarning kamligidir.

Beshinchidan, mehnat nizolarining kelib chiqish sabablarini tizimli tahlil qilish va ularning oldini olishga qaratilgan institutsional mexanizmlar takomillashtirish zaruratini talab etadi.

Prokuratura organlarining mehnat munosabatlari sohasidagi faoliyatini takomillashtirish uchun quyidagi choralarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- mehnat huquqlari buzilishi xavfi yuqori bo'lgan tashkilotlar bo'yicha risk-tahlil asosidagi prokuror nazorati mexanizmini joriy etish;
- prokuratura, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi hamda sud organlari o'rtasida yagona elektron ma'lumotlar bazasini yaratish;
- prokuror taqdimnomalari ijrosini monitoring qilishning raqamli tizimini joriy etish;
- mehnat nizolari yuzaga kelishining sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etishga qaratilgan profilaktik nazorat choralari kengaytirish.

- prokurorlarning sudlarda mehnat nizolari bo'yicha ishtirokini kengaytirish.
- ish beruvchilar uchun mehnat qonunchiligi bo'yicha majburiy o'quv dasturlarini joriy etish.

O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq prokuratura organlari qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi. Mazkur vakolat mehnat munosabatlari sohasiga ham tatbiq etilib, fuqarolarning mehnat huquqlarini himoya qilishning alohida institutsional mexanizmini shakllantiradi.

Respublikamizda mehnat qonunchiligiga rioya etilishi ustidan nazoratning amaldagi modeli asosan sodir etilgan huquqbuzarlik oqibatlarini bartaraf etishga qaratilgan. Ya'ni prokuror taqdimnomasi, protest yoki sudga ariza kiritish orqali ish qo'zg'atish aksariyat hollarda huquqbuzarlik sodir bo'lgandan keyin qo'llaniladi.

Fikrimizcha, zamonaviy mehnat bozori sharoitida prokuror nazorati faqat reaktiv emas, balki preventiv xususiyat kasb etishi lozim. Chunki xodimning noqonuniy ishdan bo'shatilganidan keyin huquqini tiklash bilan ushbu huquqbuzarlikning oldini olish o'rtasida sezilarli farq mavjud.

Qozog'iston Respublikasida esa mehnat inspeksiyasi va prokuratura organlari o'rtasida elektron ma'lumot almashish tizimi yo'lga qo'yilgan bo'lib, bu mehnat huquqlari buzilishi bilan bog'liq murojaatlarni tezkor aniqlash imkonini bermoqda.

Mazkur tajribalar O'zbekistonda ham prokuror nazoratining preventiv modelini shakllantirish zarurligini ko'rsatadi.

Ayniqsa, ishga tiklashga oid nizolar bo'yicha sudlar tomonidan chiqarilgan qarorlar tahlili ish beruvchilar tomonidan Mehnat kodeksida belgilangan tartib-

taomillarga rioya etilmasligi mehnat huquqlari buzilishining asosiy omillaridan biri ekanligini ko'rsatadi.

Mazkur holat prokuratura organlari faoliyatida profilaktik nazorat choralarining ulushini oshirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Mehnat munosabatlariga oid qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazorati fuqarolarning konstitutsiyaviy mehnat huquqlarini himoya qilishning muhim vositasi hisoblanadi. Biroq zamonaviy mehnat bozorida yuzaga kelayotgan yangi xavf va tahdidlar ushbu nazorat institutini takomillashtirishni talab etmoqda. Tadqiqot natijalari prokuror nazoratining preventiv modelini rivojlantirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish hamda idoralararo hamkorlikni kuchaytirish mehnat qonunchiligi ijrosini ta'minlashning samarali yo'nalishi ekanligini ko'rsatdi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: 2023.
2. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi. O'RQ-798-son, 2022-yil 28-oktabr.
3. O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi Qonuni. 29.08.2001 yildagi 257-II-son. <https://lex.uz/docs/-106197#-106617>
4. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. 22.09.1994. <https://lex.uz/docs/-97664>
5. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. 22.09.1994. <https://lex.uz/docs/-111453>
6. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining mehnat qonunchiligini qo'llashga oid qarorlari.

7. International Labour Organization (ILO). Labour Inspection Principles and Practice.
8. Qozog'iston Respublikasi Mehnat kodeksi va prokuror nazorati amaliyotiga oid materiallar.
9. Giyosbek Mirzaev. O'zbekiston Respublikasida mehnat munosabatlari sohasidagi qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazoratining zaruriy ahamiyati. Жамият ва инновациялар – Общество и инновации – Society and innovations Special Issue – 07 (2025) / ISSN 2181-1415
10. Giyosbek Mirzaev. Mehnat qonunchiligi ijrosi ustidan prokuror nazoratining nazariy-huquqiy asoslari. Жамият ва инновациялар – Общество и инновации – Society and innovations Special Issue – 02 (2026) / ISSN 2181-1415